



TABIAT ASRASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR O`RNI

M.M.Mamatqulov

Surxon davlat qo`riqxonasi ilmiy ishlar
bo`yicha direktor o`rinbosari

U.T.Murtazayev

B.I.Boymamatov

Katta ilmiy xodimlar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10851883>

Annotatsiya:

Maqolada innovatsiyalar zamonaviy texnologiyalar hayotimizning balki turli sohalarga ham o`z tasirini ko`rsatmoqda jumladan tabiatni asrash va uni muhofaza qilishda soha mutaxassislarining ishini yengillashtirish bilan bir qatorda sohaning shaffof tarzda rivojlanishiga ham o`z o`rni bor. Texnologiyalar sohaning ajralmas qismiga aylanib, ishlash tarzimizni tubdan o'zgartirdi. Bu texnologiyalar orqali ekologik huquqiy javobgarlik, hayvonat olami vakillarini yaqindan o`rganish imkoniyatini yaratib berish masalalari haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so`zlar: Ekologiya, Ekoinnovatsiya, qo`riqxonasi, texnologiya, qulayliklar, foydalanish, jihatlari

THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES IN NATURE PROTECTION

Abstract- In the article, innovations and modern technologies show their impact on various areas of our life, including the ease of the work of experts in the field of nature conservation and protection, as well as the transparent development of the field. Technology has become an integral part of the industry and has fundamentally changed the way we work. Through these technologies, the issues of ecological legal responsibility, creating an opportunity to closely study representatives of the animal world were discussed.

Key words: Ecology, Eco-innovation, reserve, technology, amenities, use, aspects

Kirish

Tabiatni muhofaza qilish zamonaviy texnologiyalarning o`rni beqiyos, texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, muloqot qilish, ishlash va yashash tarzimizni tubdan o'zgartirdi. Texnologiyaning ta'siri hamma joyda mavjud bo`lib, nafaqat kundalik ishlarimizda turli sohalarning rivojiga ham o`z ta'sir ko`rsatmoqda. Axborotni iste'mol qilish usulidan tortib, boshqalar bilan qanday bog`lanishimizga qadar zamonaviy texnologiyalar dunyoni chuqur o'zgartirdi.





ITALY



ITALY

Texnologiya so'nggi bir necha o'n yilliklarda juda jadal va hayotda ajralmas qismiga aylandi bu esa o'z navbatida hayotimizni o'zgartirdi va u bilan rivojlanishimizga yordam berdi. Tabiatni muxofaza qilishda dunyoning istalgan burchagidagi flora va fauna vakillari haqida jamlangan foto yoki video tasvirlarni topishingiz va ular haqida ma'lumotlarni olishingizni osonlashtirishgacha, texnologiya insoniyatga soha qulayliklarini ya'ni uning rivojiga o'z hissasini qo'shdi. Aynan texnologiya tufayli biz o'z tabiatining eng kichik vakilida eng yirik vakiliga qadar yaxshiroq bilamiz.

Asosiy qism

Tabiatni muhofaza qilish [tabiat](#) va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko'zlab ongli ravishda o'zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning go'zalligi, musaffoligini saqlab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasi.

Ba'zan, tabiatning biror komponentiga ko'rsatilgan arzimagan ta'sir hech kutilmagan katta o'zgarishlarga, xususan, xavfli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Har qanday tirik mavjudot o'z atrofini o'rab turgan tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi, undan o'ziga kerakli narsalarni oladi, shu muhitda moslashadi, muhit tarkibidagi o'zgarish uning yashash darajasini cheklaydi

Jumladan antropogen ta'sirlar natijasida inson yashay oladigan hudud kengayadi, foydalaniladigan tabiiy elementlar soni va hajmi ortadi, binobarin, insonning tabiatga tazyiqi sifat jihatidan ham, ko'lam jihatidan ham ko'payadi. Inson o'zi yashashi va faoliyat ko'rsatishi uchun tabiiy muhitdan tashqari yana sun'iy muhitni ham bunyod etadi. Masalan, shaharlar, turar joy binolari, bog'lar, suv omborlari, yo'llar va boshqa Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, fan va texnikaning taraqqiy etishi bilan, tabiiy boyliklarning ahamiyati, ulardan foydalaniladigan sohalar, ularni ishlatish shakllari ham o'zgarib boradi.

Insonning tabiatga ta'siri kuchayishidan, antropogen landshaftlar ko'paymoqda. Hayvonot va o'simlik olamidan rejasiz foydalanish yoki inson faoliyati bilan bog'liq boshqa sabablar tufayli 16-asrning oxirlaridan umurtqali hayvonlarning kamayib yo'ki mutloqo yo'q bo'lib ketishiga olib keldi

Bu borada O'zbekiston Respublikasida hududida ham tabiatni asrash va undan oqilona foydalanish hamda kelajak avlodlarga yetkazish yuzasidan bir qancha qonunlar ishlab chiqarilgan va jamiyatga tadbiiq qilingan jumladan. Bular „Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida“ (1992-yil 9-dekabr), „Suv va suvdan foydalanish to'g'risida“ (1993-yil 6-may), „Yer osti boyliklari to'g'risida“ (1994-yil 23 sentabr; 2002-yil 12 dekabrda yangi tahrirdagi), „Atmosfera havosini





ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

muhofaza qilish to'g'risida" (1996-yil 27-dekabr), „O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida“ va „Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida“ (1997-yil 26 dekabr), „Davlat kadastrlari to'g'risida“ (2000-yil 15 dekabr), „O'rmon to'g'risida“ (1999-yil 15-aprel), „Chiqindilar to'g'risida“ (2000-yil 5-aprel)gi qonunlardir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50, 54, 55 va 100-moddalarida tabiatni muhofaza qilishga oid normalar bayon etilgan.

Sohaning yanada rivojlanishiga o'z hissasini qo'shib kelayotgan zamonaviy texnologiyalarning o'zni beqiyosdir. Jumladan noyob tabiatni asrashda va kelajak avlodlarga yetkazish maqsadida o'simlik va hayvon turlarini himoya qilishga qaratilgan qonun ustivorliklari mavjud.

Tabiiy boyliklarni asrash yuzasidan respublikamiz hududida 9 ta qo'riqxonalar mavjud bo'lib ularda har qanday xo'jalik faoliyati man qilinadi (nazorat qilinadigan ilmiy tadqiqot ishlaridan tashqari). *Zomin, Chotqol Surxon, Qizil-Qum, Baday-To'qay, Zarafshon, Nurota, Kitob, Hisor* kabi davlat qo'riqxonalaridir mavjud.

Qo'riqxonalar faoliyatida qulaylik yaratish va uning flora va faunasini hamda tur vakillarining yashash tarzini yaqindan o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning o'zni beqiyosdir. Bu texnologiyalar qatoriga Fotoqopqon(Фотоловушка), GPS aniqlagich, teplovizor, harakat dedektor kuzatuv kameralarni va bir qancha texnologiyalarni misol keltirishimiz ham mumkin.

Jumladan Fotoqopqonlar- bu harakat sensori avtomatik ishga tushirilishi bilan inson aralashuvisiz suratga olish uchun mo'ljallangan raqamli foto yoki video tasvir kamerasining bir turi. Zamonaviy raqamli kamera tuzoqlar videokamerasi vazifasini ham bajaradi. Bu qurilmadan ekologlar va yovvoyi tabiat tadqiqotchilari tomonidan yovvoyi hayvonlar tasvirini olish uchun foydalaniladi. Ba'zi hollarda hayvonot dunyosi vakillari o'rganish imkoni bo'lmagan hududlarga (qushlar vakillari yoki kamyob tur vakillari) yaqindan o'rganish maqsadida o'rnatiladi. Ushbu qurilmalar Himoya ranglariga ega dizayni va yuqori darajadagi avtonomiya tufayli kamera tuzoqlari bir necha oygacha kutish rejimida ishlashi mumkin, eng zamonaviylari esa mobil Internet orqali videolarni uzatishi yoki bildirishnomalarni ishga tushirishi mumkin, bu esa mutaxassislariga sodir bo'lgan voqealar haqida xabar beradi.

GPS aniqlagich esa hududning koordinata nuqtalarini belgilashda mutaxassisning turgan joyi dengiz hajmiga nisbatini belgilasgda juda qo'l keladi. Bundan tashqari teplovizor moslamalari orqali tunda harakatlanayotgan





hayvonot dunyosi vakillarining tana harorat nisbatiga qarab ko`rish imkonini beradi.

Yana shunday qurilmalar toifasiga esa harakat dedektorlari kameralarni ham kiritishimiz mumkin. Bu kameralarda yuzni tanish hususiyatlari mavjud bo`lib bu orqali huquqbuzarlikni aniqlash imkoniyati yaratilgan, yani kirish taqiqlangan hududlarda yuz begona shaxslar va ularning hatti harakatlari tasvirga olinadi hamda mutaxassislarga habar jo`natiladi.

Hulosa

Zamonaviy texnologiyalar atrof-muhitni asrash va muhofaza qilishda katta rol o'ynaydi. Biz iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhitning ifloslanishi bilan bog'liq muammolarga duch kelamiz. Biroq, innovatsion texnologiyalar tufayli biz tabiatni asrash va yanada barqaror kelajak yaratishga katta hissa qo'shishimiz mumkin.

Shunday qilib, zamonaviy texnologiyalar atrof-muhitni saqlash va himoya qilishda kuchli vositadir. Ular noyob tur vakillari saqlash va himoya qilishda yanada samarali foydalanish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar bizga tabiat va odamlar uyg'unlikda yashashi mumkin bo'lgan yanada barqaror kelajak sari harakat qilishimizga yordam beradi.

References:

- 1.Теличенко В.И. «Зеленые» технологии среды жизнедеятельности: понятия, термины, стандарты// Вестник МГСУ//2017
- 2.Удовиченко Д.И. Высокие технологии//Мировая наука//2019 - №6 - С. 476-479 УДК: 001.895//
- 3.Колчанов Н.А. Компьютерная системная биология и биоинформатика: задачи и методы // Марчуковские научные чтения. 2019. №2019. С.10
4. Arts K., van der Wal, R. & Adams, W.M. Digital technology and the conservation of nature. *Ambio* 44, .2015. p. 661–673
- 5.<https://dzen.ru/a/ZNCxqpVZe1uXM-ue>

